

## O'ZBEKISTONDA ISSIQXONA GAZLARI SAVDOSINI YO'LGA QO'YISH ISTIQBOLLARI

*Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li*

*I. Karimov nomidagi Toshkent*

*davlat texnika universiteti*

*mustaqil tatqiqotchisi*

So'nggi yillarda atmosferada issiqxona gazlari miqdorining ko'payishi tufayli yer havosining harorati tobora ko'tarilmoqda. 2011-2020 yillar insoniyat tarixidagi eng issiq o'n yillik bo'ldi. 1980 yildan beri harorat har yili ko'tarilib, issiqlik bilan bog'liq kasalliklarning ko'payishiga va ochiq havoda ishlashda qiyinchiliklarga olib keldi. Anormal issiqlik natijasida o'rmon yong'inlari juda tez boshlanadi va tarqaladi. Global isish natijasida tabiiy ofatlar soni ham sezilarli darajada oshdi, chunki havo haroratining oshishi havoda ko'p miqdorda namlik ko'tarilishiga olib keladi va suv toshqini ko'payishiga olib keladi. Ushbu turdag'i toshqinlar odamlarning uylariga katta zarar etkazadi va katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Iqlim o'zgarishi har kuni toza suvgaga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Qolaversa, suv tanqis hududlarda yashovchi aholining turmush sharoiti ham yomonlashdi. Suv tanqisligi qishloq xo'jaligiga ham ta'sir qiladi va natijada hosilning yo'qolishi tufayli oziq-ovqat xavfsizligi tobora qiyinlashib bormoqda. Bundan tashqari, cho'llanish natijasida ekin maydonlarining miqdori kamayib, yerlarning degradatsiyasi kuchayadi, cho'l maydonlarining ko'payishi natijasida havoga ko'p miqdorda qum zarralari ko'tarilib, havoning ifloslanishi ortadi. Bundan tashqari, havoning ifloslanishi natijasida yangi turdag'i kasalliklar paydo bo'lganligi sababli iqlim o'zgarishi inson salomatligi uchun katta xavf hisoblanadi. Atrof-muhit omillari tufayli dunyoda har yili 13 million kishi vafot etadi.

Iqlim o'zgarishi qashshoqlikka moyil bo'lgan odamlarning yashash joylari va yashash sharoitlarini yanada yomonlashtiradigan suv toshqinlaridan qutula olmaydi. 2010 yildan 2019 yilgacha suv tanqisligi tufayli 23,1 million kishi suv toshqini tufayli ko'chirilgan.[1] Iqlim o'zgarishining asosiy sabablaridan biri insonning iqtisodiy faoliyati natijasida atmosferaga

issiqxona gazlarining chiqarilishidir. Issiqxona gazlari - infraqizil nurlanishni yutuvchi va qayta chiqaradigan tabiiy yoki antropogen kelib chiqadigan gazsimon moddalar. Ular er atmosferasiga to‘planib, issiqxona effektini yaratadilar, bu esa kun davomida erga kirgan issiqlikning bir qismini qaytarib olishga imkon bermaydi. Shuning uchun ular issiqxona gazlari deb ataladi

Bu holat biz yuqorida aytib o‘tgan barcha muammolarni chuqurlashtiradi. Ushbu muammoni hal qilish yashil iqtisodiyotga o‘tish, sanoatni dekarbonizatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish, chiqindilarni boshqarish va sanoat va binolarda energiya samaradorligini oshirish kabi toza energiyaga o‘tishdir. Ammo bu islohotlar iqtisodiyotning ushbu tarmoqlariga katta sarmoya kiritishni talab qiladi va boshqa rivojlangan mamlakatlar yordamisiz rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda qiyin vazifa bo‘lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun jahon hamjamiyati uglerod birliklari savdosi tizimini yaratdi va joriy qildi (Carbon trade). Ushbu tizim rivojlanayotgan mamlakatlarga loyiha tomonidan qisqartirilgan uglerod birliklarini (uglerod kreditlari) sotish orqali o‘z texnologiyalarini yaxshilash imkonini beradi. Uglerod kreditlarini sotib olgan mamlakatlar o‘zlarining Milliy miqyosda belgilangan hissalarini qoplash uchun ulardan foydalanmoqdalar (Nationally Determined Contributions – NDC).


**Jahon bozoridagi holat.** Refinitiv tahlilchilarining bergan ma’lumotlariga ko‘ra, uglerod bozori 2021 yilda 164 foizga o‘sib, rekord darajadagi 760 milliard yevroga (851 milliard AQSh dollar) yetdi. Kvota savdosi tizimi Yevropa Ittifoqida 2005 yildan, Shvetsariya va Yangi Zelandiyada 2008 yildan, Janubiy Koreyada 2015 yildan beri amal qiladi. Qozog‘istonda ham uglerod bozori mavjud. Bu erda emissiya savdosi tizimi faqat karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) uchun amal qiladi va faqat yirik "iflos" sanoat korxonalariga yetkazilgan



**1-rasm.** Uglerod birliklarining jahon bozoridagi naxlari


zararni qoplaydi. Eng yuqori uglerod birliklari narxi Yevropa bozorida bo‘lib qolmoqda. 2021 yillarda bir tonna CO<sub>2</sub> uchun narxi 100 AQSh dollardan yuqori narxlarni ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda uglerod birliklari loyihaning turiga qarab 3 dan 90 AQSh dollar atrofida bo‘lib qolmoqda.

Hozirda dunyoning bir qancha davlatlarida uglerod birliklari savdosi yo‘lga qo‘yilgan 2-rasm.



**2-rasm.** Uglerod birliklari savdosi joriy etilgan mamlakatlar

Volume of greenhouse gas emissions on 2017



**3-rasm.** O‘zbekistonda 2017 yilda chiqarilgan issiaxonha gazlari xaimi.

kamida 30 foizga kamaytirish bo‘yicha jamoaviy sa’y-harakatlarga hissa qo‘shish uchun


**O‘zbekistondagi holat tahlili.** O‘zbekiston Parij kelishuvi bo‘yicha 2030-yilga borib issiqlik gazlar hajmini 2010-yildagi yalpi ichki mahsulotga nisbatini 35 foizga kamaytirish majburiyatini olgan. Mamlakat, shuningdek, metan miqdorini kamaytirish bo‘yicha Global majburiyatga ham qo‘shildi, bu tashabbusga imzo chekuvchilar 2030 yilga kelib global metan emissiyasini 2020 yil darajasiga nisbatan

ixtiyoriy harakatlar qilishga rozi bo‘ladi. 2021 yilda e’lon qilingan Respublika MMBH hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonning 2017-yilda issiqxonalar gazlari emissiyasi 189 million tonna CO<sub>2</sub>-ekv. teng eknligi keltirilgan. Emissiyalarning asosiy qismi energetika sektoriga to‘g‘ri keladi. Energetika sohasini faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rib chiqsak, birinchi o‘rinda tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash va tashish 47,37 million tonna CO<sub>2</sub>-ekv.ni tashkil qiladi. Bu umumiy emissiyalarning 22,6 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda yoqilg‘i yoqish natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish (15,2%) va qayta ishlash sanoati va qurilish (10,1%) [2]. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash va tashish jarayonida katta miqdorda metan gazi tashlanadi. Metan tashlanmalari ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirining barcha bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin, ular quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: qazib olish, tashish va saqlash, qayta ishlash va sotish. Ushbu tashlanmalar noqulay sharoitlarda bosimni pasaytirish uchun tabiiy gaz yoqilganda, jarayon yoki faoliyat natijasida chiqarilgan tabiiy gaz ataylab to‘g‘ridan-to‘g‘ri havoga chiqarilganda yoki metan klapanlar yoki gardishlar kabi qochqinlar orqali beixtiyor chiqarilganda yuzaga keladi. [3]. Energetika sektoridan qolgan issiqxona gazlari emissiyasi asosan energiya ishlab chiqarish va boshqa faoliyat uchun yoqilg‘ilarni yoqish natijasida yuzaga keladi. Ma’lumki, O‘zbekistonda elektr energiyasining 75 foizi issiqlik elektr stansiyalarida tabiiy gaz, mazut va ko‘mir kabi neft mahsulotlarini yoqish hisobiga ishlab chiqariladi [4]. Sanoat sohasida ba’zi hollarda issiqxona gazlarining boshqa turlari ham chiqarilishi mumkin, ammo bu erda ham asosiy emissiya turi CO<sub>2</sub> bo‘lib, ishlab chiqarish va isitish uchun yoqilg‘ilarni yoqish paytida chiqariladi. Bundan tashqari, sanoat sohasida energiya samaradorligi ko‘rsatkichi juda past, chunki SSSR davridan qolgan zavod va uskunalarning aksariyati juda ko‘p energiya iste’mol qiladi. Qishloq xo‘jaligi sohasi chiqindilari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarining kengayishi, chorva mollari sonining ko‘payishi, tuproq va o‘g‘itlardan intensiv foydalanish natijasida yuzaga keladi. Chorvachilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqindilarning eng katta manbai va erdan foydalanish o‘zgarishining asosiy sababidir. Sintetik o‘g‘itlar ham qishloq xo‘jaligining bevosita chiqindilariga katta hissa qo‘shadi.

**Uglerod birliklari savdosi loyihalari.** Uglerod birliklarini savdoga chiqarishdan oldin uni real holatda atmosferaga tashlanishini oldini olishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Loyihalar turlariga qarab xar xil bo‘lishi mumkin ammo asosiysi loyiha natijasida issiqxona gazlarini atmosferaga tashlanishi oldi olinishi lozim. Bu loyihalar gazlarni tashlanishini oldini olish, qazilma yoqilg‘idan ekologik toza yoqilg‘iga o‘tish, elektr energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish kabi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin.

**Uglerod birliklari xaridorlari.** Uglerod birliklari xaridorlari davlat, tashkilot yoki korxona bo‘lishi mumkin. Davlatlar ushbu birliklarini o‘zlarini Parij bitimi doirasida olgan majburiyatlarini qoplash uchun sotib olishadilar. Ba’zi davlatlarda esa uglerod soliqlari yoki cheklovlar mavjud bo‘lganligi sababli korxonalar ularga berilgan cheklovlardan ortib ketgan hollarda boshqa bir korxonada cheklovgacha yetmagan qismini sotib olish imkoniyati mavjud. Shunday holatlarda ushbu korxonalar uglerod birliklari xaridorlariga aylanadilar.

#### Issiqxona gaz emissiyalari xalqaro savdo tartibi



**Xulosa.** Uglerod birliklari savdosini yo‘lga qo‘yish mamlakat uchun katta miqdorda investitsiya oqimi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi kundagi jahon bozoridagi narxlardan kelib chiqadigan bo‘lsa Respublika bir yilda 7-10 mln. AQSh dollar miqdoridagi

investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega, Shuningdek, mazkur tizim respublikadagi energiya samaradorligi juda past bo‘lgan texnologiya va qurilmalarni rivojlangan mamlakatlar texnologiyalarini jalb qilgan holda modernizatsiya qilish imkonini beradi. Respublikada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish natijasida katta miqdorda tabiiy gaz iqtisod qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, issiqxona gazlarini chiqarilishini oldini olish natijasida mamlakatdagi ekologik holatni yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari uglerod birliklarini savdoga chiqarish orqali ularning bir qismini mamlakat o‘z MMBHsini qoplash uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa o‘z navbatida Respublika tomonidan Parij bitimi doirasida olingan majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga imkon yaratadi. Albatta uglerod birliklari savdosini yo‘lga qo‘yish uchun mamlakatda ushbu loyihalarni amalga oshirish tartibini belgilab beradigan mexanizmlar yaratish lozim bo‘ladi.

1. BMTning turli manbalariga asoslanib.

<https://www.un.org/ru/climatechange/science/causes-effects-climate-change>

2. O‘zbekistonning yangilangan milliy mizyisda belgilangan hissasi hisoboti. 2021/10-22 st./O‘zgidromet/UNDP.

3. Neft va gaz sanoatining metan tashlanmalarini kamaytirish bo‘yisha siyosatchilar uchun qo’llanma. 2023. Commercial Law Development Program Office of the General Counsel United States Department of Commerce.

4. O‘zbekiston 2020-2030 yillar elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiysi. Energetika Vazirligi. 21 в. 2019 й. <https://minenergy.uz/ru/lists/category/27>